

О‘ZBEKISTONNING AQSH VA YEVROPA DAVLATLARI BILAN IQTISODIY – SIYOSIY ALOQALARI.

Saydullayeva Iroda Olimjon qizi
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Tarix va filalogiya fakulteti
Tarix yo‘nalishi 3-talabasi.

Annonatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari tarixiy jarayonlar va zamonaviy hamkorlik kontekstida tahlil qilinadi. AQSh bilan aloqalarning mustaqillikdan keyingi rivoji, strategik sheriklikka oid kelishuvlar, shuningdek Andijon voqealaridan keyingi inqiroz holatlari yoritiladi. Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar esa Sheriklik va hamkorlik bitimlari asosida kengaygani, EPCA bitimi va Global Gateway tashabbusi kabi dolzarb loyihalar orqali chuqurlashayotgani ko‘rsatilgan. Shuningdek, ikki tomonlama iqtisodiy ko‘rsatkichlar, xorijiy investitsiyalar, GSP+ tizimi orqali eksport imkoniyatlari, mavjud muammolar va istiqbollar chuqur tahlil etilgan.

Ka’lit so‘zlari: O‘zbekiston, AQSh, Yevropa Ittifoqi, tashqi siyosat, iqtisodiy hamkorlik, siyosiy munosabatlar, EPCA, Global Gateway, GSP+, investitsiya, strategik sheriklik, diplomatik aloqalar.

Abstract. This article analyzes Uzbekistan's economic and political relations with the United States and the European Union in the context of historical processes and modern cooperation. The development of relations with the United States after independence, strategic partnership agreements, as well as the crisis situations after the Andijan events are covered. It is shown that relations with the European Union have expanded on the basis of Partnership and Cooperation Agreements and are deepening through current projects such as the EPCA agreement and the Global Gateway initiative. Also, bilateral economic indicators, foreign investments, export opportunities through the GSP+ system, existing problems and prospects are analyzed in depth.

Keywords: Uzbekistan, United States, European Union, foreign policy, economic cooperation, political relations, EPCA, Global Gateway, GSP+, investment, strategic partnership, diplomatic relations.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, tashqi siyosatini ko‘p vektorli, pragmatik va muvozanatli asosda yuritishga intila boshladi. Shu jarayonda AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan aloqalarni rivojlantirish, xalqaro maydonda o‘z manfaatlarini ilgari surish va global iqtisodiy tizimga integratsiyalashish asosiy maqsadlarga aylandi. O‘zbekistonning yangi tashqi siyosiy kursi – “ochiq eshiklar” siyosati – bu borada muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekiston va AQSh hamda Yevropa davlatlari o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlik aniq faktlar va dolzarb manbalar asosida tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV - O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar (qo‘mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning O‘zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra:”O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb qilish, mahalliy tovarlar va xizmatlar eksporti hajmlarini oshirish, xorijiy mamlakatlardan turistik oqimni jalb qilish, respublikaning transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish masalalarida davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining idoralararo muvofiqlashtirish va hamkorlik tizimini samarali tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar (qo‘mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning (keyingi o‘rinlarda — hukumatlararo komissiyalar) O‘zbekistonga oid qismlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadi qilib qo‘yildi”. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro siyosiy sahnada o‘zining mustaqil va muvozanatli tashqi siyosatini shakllantirishni boshladi. Bu siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri

– AQSh va Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishdir. 1992-yilda AQSh va YI bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilganidan buyon bu munosabatlar turli bosqichlarni bosib o‘tdi.

2001-yildagi global xavfsizlik muammolari, Afg‘oniston inqirozi va mintaqaviy xavfsizlik masalalari O‘zbekiston–AQSh aloqalariga yangi tus berdi. Shu paytda Termizdagi K2 harbiy bazasining AQSh kuchlariga topshirilishi real strategik hamkorlik misolidir. YI bilan esa 1996-yilda imzolangan Sheriklik va hamkorlik bitimi (PCA), 2022-yilda imzolangan Keng qamrovli sheriklik va hamkorlik bitimi (EPCA) institutsional asoslarni mustahkamladi.

2002-Ushbu maqolada O‘zbekiston va G‘arb davlatlari o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, hozirgi holati va istiqbollari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy Qism

O‘zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o‘rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992— yil 15-16-fevral kunlari AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi vaikki davlat o'rtasidadiplomatik aloqalar o'rnatildi.1992-yil 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi. 1993— yil 14-sentabrda AQSH davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi Strob Talbot O'zbekistonda bo'ldi va O'zbekiston Prezidenti bilan hamkorlik qilish masalalarida suhbatlashdi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning 1996— yil 23-28-iyun kunlarida AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish orqali alohida o'rin tutadi. 1996— yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan

O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim», lining 1999-yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga

aylandi. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida aloqalarning yo'lga qo'yilishi mamlakatimizning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko'tardi.

Siyosiy hamkorlik: tarixiy bosqichlar va bugungi kun.

AQSh bilan siyosiy munosabatlar. 1992-yil 25-fevralda O'zbekiston va AQSh o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Keyingi yillarda munosabatlar turli bosqichlarni bosib o'tdi. 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Vashingtonga rasmiy tashrifi chog'ida "Strategik sheriklik" darajasiga ko'tarildi. Bu tashrif doirasida 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq savdo-investitsiya bitimlari imzolangan.

Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy munosabatlar. YI bilan diplomatik aloqalar 1996-yildagi Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim orqali boshlangan. 2019-yildan boshlab YI bilan yangi hujjat – Keng qamrovli sheriklik va hamkorlik bitimi ustida muzokaralar boshlangan va 2022-yilga kelib bu jarayon yakunlanmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik: raqamlar, loyihalar va tarmoqlar

AQSh bilan iqtisodiy hamkorlik. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston–AQSh o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 682 million dollarni tashkil etdi. AQSh kompaniyalari – John Deere, GM Powertrain, Honeywell va boshqalar – O'zbekistonda faoliyat yuritmoqda. USAID orqali 100 million dollarlik dasturlar amalga oshirilmoqda.

AQSh kompaniyalari, xususan: John Deere – qishloq xo'jaligi texnikasi bo'yicha, General Motors Powertrain Uzbekistan – avtomobil dvigatellari ishlab chiqarishda, Silverleaf Capital va Honeywell – infratuzilma loyihalarida faol ishtirok etmoqda.

Bundan tashqari, AQShning USAID agentligi orqali 2021–2025 yillarga mo'ljallangan 100 million dollarlik iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga oid loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yevropa Ittifoqi va davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik. YI O'zbekistonning 2023-yildagi eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo'lib, o'zaro savdo hajmi 3,6 milliard yevrodan oshdi. Shu yili O'zbekiston 2021-yildan beri GSP+ (Generalized System of

Preferences Plus) tizimi doirasida YI bozoriga 6,200 dan ortiq tovar turini boj imtiyozlari bilan eksport qilish huquqini oldi.

Yevropa investitsiyaviy loyihalari orasida quyidagilar alohida ahamiyatga ega: Germaniya: Siemens Energy kompaniyasi bilan 2023-yilda 1,2 milliard yevrolik shamol elektr stansiyalari qurilishi bo'yicha kelishuv imzolandi. Fransiya: TotalEnergies kompaniyasi Surxondaryo viloyatida quyosh energetikasi loyihasini yo'lga qo'ymoqda. Italiya: O'zbekiston charm sanoati uchun texnologik uskunalarni yetkazib beradi.

Muammolar va istiqbolli yo'nalishlar

Garchi iqtisodiy-siyosiy aloqalar sezilarli darajada rivojlanayotgan bo'lsa-da, quyidagi muammolar mavjud:

Transport va logistika – Yevropa bozorlariga chiqishda O'zbekiston dengiz yo'liga ega emasligi, tranzit davlatlarga qaramlikni kuchaytiradi.

Moliyaviy muvofiqlashtirish – Xalqaro moliya institutlari (IMF, EBRD) bilan to'liq integratsiyalashuv hali ham to'liq amalga oshmagan.

Siyosiy shaffoflik va huquqiy kafolatlar – Investitsion muhit barqarorligiga doir xavotirlar Yevropa investorlarini ehtiyotkorlikka undaydi.

Biroq, 2023–2026 yillar uchun mo'ljallangan Tashqi siyosat konsepsiyasida aynan YI va AQSh bilan aloqalarni chuqurlashtirish, xalqaro investitsiyalar hajmini 1,5 barobarga oshirish, “yashil iqtisodiyot” sohasidagi hamkorlikni kengaytirish belgilangan.

Yevropa Ittifoqi va davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik. 2023-yilda O'zbekiston va YI o'rtasidagi savdo hajmi 3,6 milliard yevrodan oshdi. O'zbekiston YIning GSP+ tizimi doirasida 6200 dan ortiq tovarlarni imtiyozli eksport qilish imkoniyatiga ega. Germaniya, Fransiya va Italiya bilan energetika, infratuzilma va qishloq xo'jaligi texnologiyalari sohasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbarida ilgari surgan global va mintaqaviy tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilinganligi va

qo'llabquvvatlangani fikrimizning isbotidir. Xalqaro ekspertlar ta'biri bilan aytganda, O'zbekiston xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar doirasida mazmunli muzokaralar o'tkazish uchun doimiy maydoncha va platformalar taqdim etishi orqali xalqaro diplomatiyalar markaziga aylanmoqda.

Bu borada Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishelning mamlakatimizning tashqi aloqalardagi roli haqida quyidagi fikrlari Yevropa Ittifoqining ham O'zbekiston bilan hamkorlikni mustahkamlashga intilayotganidan dalolat beradi. "Biz O'zbekistonning

Markaziy Osiyoda barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlashdagi rolini yuqori baholaymiz. O'zaro bog'liqlikni muhim deb hisoblaymiz va kelgusida muntazam ravishda uchrashib, "yashil" iqtisodiyot va barqarorlik masalalarini birgalikda muhokama qilishni rejalashtirganmiz". Shuningdek, BMT ilmiy tadqiqot instituti va Yevropa universitetining xalqaro munosabatlarni rivojlantirish dasturi direktori Xorxe Mestre: "Bugun O'zbekiston amalga oshirayotgan islohotlar tufayli izchil o'zgarib borayotganini ko'rib turibmiz.

U qo'shnilar o'rtasidagi ko'priklarni tikladi, Markaziy Osiyodagi yetakchilik mavqeini mustahkamladi, mintaqaning barcha davlatlarini siyosiy va savdo-iqtisodiy jihatdan yaqinlashtirish tashabbusini ilgari surmoqda",- deya ta'kidlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan- yilga mustahkamlanib bormoqda.

O'zbekistonning AQSh va Yevropa davlatlari bilan hamkorligi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy barqarorlik va xalqaro imijni shakllantirishda

muhim vositaga aylanmoqda. Aniq statistik ko'rsatkichlar va yirik investitsion loyihalar bu hamkorlikning chuqurlashib borayotganini tasdiqlaydi. Kelgusida O'zbekistonning transport, raqamli iqtisodiyot, ekologiya va huquqiy muhitni mustahkamlash borasidagi islohotlari bu aloqalarni yanada barqaror va strategik darajaga olib chiqishi mumkin.

A. Asqarovga ko'ra, yurtimizda xalq diplomatiyasining taraqqiyot bosqichlari azaldan mavjud bo'lgan va ushbu faoliyat xalqlar o'rtasida aloqalarni rivojlantirishda muhim siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy manfaat keltirib kelgan.

O'zbekistonning AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan aloqalari strategik darajaga chiqib bormoqda. Bugungi kunda bu hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, ta'lim va madaniyat sohalarini qamrab olgan. Yevropa Ittifoqi bilan imzolangan EPCA bitimi, Global Gateway strategiyasi doirasidagi loyihalar, shuningdek AQSh bilan bo'lgan strategik muloqot va investitsion forumlar bu yo'nalishdagi amaliy natijalar sifatida ko'riladi.

O'zbekiston hukumati YI va AQSh bilan energetika, yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar va inson kapitali rivoji yo'nalishlarida hamkorlikni chuqurlashtirishga intilmoqda. Kelgusida demokratik institutlarni mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurash, hamda iqtisodiy islohotlarni davom ettirish orqali G'arb davlatlari bilan barqaror va chuqur hamkorlik uchun yangi zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4331-son qaroriga 1-ILOVA.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.uz.
3. EEAS – European External Action Service, EU–Uzbekistan Partnership Report, 2023.
4. U.S. Department of State, Bilateral Relations Fact Sheet: Uzbekistan, 2023.
5. Uzbekistan State Committee on Statistics, Foreign Trade Data 2023.
6. OECD Uzbekistan Country Report 2024.

7. USAID Central Asia Programs Overview 2022–2025.
8. Siemens Energy press release, Berlin, 2023.
9. UNCTAD World Investment Report 2023.
10. Akbarzadeh, Shahram. (2023). Uzbekistan and the Great Powers: From Geopolitics to Engagement. Routledge.
11. Аскарлов А. Халқ дипломатияси: тарих, бугун ва келажак. —Янги ўзбекистон газетаси. 2020 йил 14 октябрь, 196-сон.
12. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S.Burxonova.O‘zbekiston tarixi .TOSHKENT. «Iqtisod-Moliya» 2006.
13. Khadicha Saidullayeva.Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 4 № 2 (2023) / ISSN 2181-1415.